

## YUNESKO RO'YXATIDAN JOY OLGAN MODDIY VA NOMODDIY MADANIY MEROsimiz

**Ro'zmetova O'g'iljon**

**O'zDSMI "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish"**  
fakulteti talabasi 1-bosqish talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.8191368>

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqolada milliy madaniyatimizning yuksalishi, turli etnik guruhlar va millatlarning o'zligini anglashi, o'z milliy madaniy qadriyatlari va merosini tiklashga bo'lgan intilishlarining kuchayganligi, qadimdan shakllanib, kelayotgan madaniyatimizning dunyo hamjamiyatidagi tutgan o'rni, madaniy merosimizga boshqa davlatlarning munosabati haqida bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Moddiy meros, nomoddiy meros, jamiyat, mafkura, madaniyat, qadriyat, an'ana obida, askiya

### KIRISH

XX asrning so'nggi choragi nafaqat texnik taraqqiyotning yuqori darajaga ko'tarilganligi, balki milliy madaniyatlarning yuksalishi, turli etnik guruhlar va millatlarning o'zligini anglashi, o'z milliy madaniy qadriyatlari va merosini tiklashga bo'lgan intilishlarining kuchayganligi bilan ham xarakterlanadi. Milliy o'zlikni anglash jarayoni sobiq sotsialistik lager va sobiq sho'rolar davlatining parchalanishi tufayli yanada teziashdi va yaqqolroq ko'zga tashlana boshladи. Milliy va mafkuraviy istibdod iskanjasidan ozod bo'la boshlagan turli etnik guruhlar o'zlarining unutilayotgan azaliy va madaniy merosini tiklay boshladilar. Bu jarayonni 130 yil mustamlakachilik iskanjasida bo'lgan xalqimizning o'zligiga qaytishi va madaniy merosni qaytadan tiklashdagi intilishida ham ko'rsak bo'ladi. Ayniqsa, jamiyatni isloh qilish jarayonida madaniy merosga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. O'zbekiston qadimiy tamaddun markazlaridan hisoblanadi. Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan yurtimizda asrlar davomida turli sivilizatsiyalar hukm surgani sababli noyob, beba ho va go'zal me'moriy obidalar bunyod etilishiga zamin yaratdi. Dunyoning hech bir burchagida uchramaydigan bunday betakror obidalar bizning boyligimiz va faxrimiz hisoblanadi. YUNESKOning umumjahon ro'yxatidagi moddiy madaniy 1121 ta merosdan 4 ta meros O'zbekistondan kiritilgan bo'lib, bular: Ichon qal'a (1990-yilda); Buxoro shahrining tarixiy qismi (1993-yilda); Shahrisabz shahrining tarixiy qismi (2000-yilda); Samarqand shahri (2001-yilda) bo'lsa, YUNESKOning nomoddiy madaniy 500 dan ortiq meros ro'yxatiga O'zbekistondan 8 ta meros, ya'ni: Boysun tumani madaniyati (2008-yilda); Shashmaqom (2008-yilda - O'zbekiston va Tojikiston); Katta ashula (2009-yilda); Askiya - aqlidrok san'ati (2014-yilda); Navro'z (2016-yilda O'zbekiston va yana 11 ta davlat); Palov tayyorlash madaniyati va urf-odati (2016-yilda); Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, atlas va adres matolarini to'qishning an'anaviy texnologiyasi (2017-yilda), Xorazm lazgisi (2019-yilda) kiritilgan. Albatta, bu oddiy ro'yxat emas. Bu butun dunyoga buyuk va beba ho merosimizni, salohiyatimizni hamda qadriyatlarimizni namoyon qiluvchi beba ho boyligimiz hisoblanadi. Madaniy meros - bu ma'lum bir madaniyat yoki jamoatning tovarlari, an'analari va bilimlari to'plamidir. "Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida"gi "O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartishlar kiritish haqida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi "2010-2020-yillarda nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va

ulardan foydalanish Davlat dasturini tasdiqlash to'g'risida" hamda 2011-yil 23-fevraldag'i "Nomoddiy madaniy meros muhofazasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari soha istiqbolida yangi ufqlarni olib berdi.

### **Madaniy meros nima?**

Xalqning yoki ma'lum bir mintaqaning madaniy merosi uning o'ziga xos madaniy merosidir, ya'ni ularning shaxsiyati bilan chambarchas bog'liq bo'lgan moddiy va nomoddiy boyliklar to'plami ijtimoiy va madaniy, ya'ni ular o'sha mamlakat yoki mintaqaga xos xususiyat sifatida qabul qilinadi. Barcha jamoalar avvalgi avlodlardan olgan madaniy merosning bir turini qadrlashadi va saqlaydilar. Ushbu meros odatda sayyohlik ob'ektiga aylanadi. Madaniy merosni tashkil etadigan madaniy namoyishlar orasida joylar, binolar va me'morchilik asarlari, raqslar, qo'shiqlar va, albatta, rasm, adabiyot va haykaltaroshlik kabi turli xil narsalar mavjud. Ular YuNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan tan olingen (Birlashgan Millatlar Tashkilotiga biriktirilgan).

**Moddiy meros.** U ma'lum bir jamiyat, mamlakat yoki mintaqaning madaniyati, tarixi va o'ziga xosligi bilan bog'liq deb hisoblanadigan tovarlar, saytlar yoki narsalardan iborat. Ushbu turdag'i meros ko'char bo'lishi mumkin, masalan: mayyaliklar ishlatajigan idishlar yoki ko'chmas mulk, masalan: Gretsiyadagi Parfenon.

**Nomoddiy meros.** U ma'lum bir jamoa yoki guruhning o'ziga xosligi va madaniyatini uzatuvchi iboralar, bilimlar, faoliyat va uslublardan iborat. U nomoddiy, moddiy bo'limgan aktivlardan iborat. Bu odatda og'zaki nutq orqali avloddan avlodga o'tadigan urf-odatlar va urf-odatlardir. Masalan: merengue, tantanalar yoki Boliviya'dagi Oruro karnavali kabi madaniy tadbirlar kabi raqslar.

### **Moddiy merosning xususiyatlari**

Unga tabiiy meros, sanoat merosi, arxeologik meros, madaniy meros, badiiy meros va me'moriy meros kiradi.

Moddiy meros - ko'chmas mulk - bu o'sha joylar yoki binolar, ularni bir joydan boshqa joyga o'tkazish mumkin emas.

Moddiy meros - mebellarga qadimi sivilizatsiyalarning kundalik hayotidan san'at asarlari, kitoblar, hujjatlar, fotosuratlar, idishlar kiradi.

Bu madaniy an'ana yoki mavjud bo'lgan yoki allaqachon yo'q bo'lib ketgan sivilizatsiya haqida noyob guvohlik beradi.

### **Nomoddiy merosning xususiyatlari**

U avloddan avlodga o'tib boradi.

Uning miqdorini aniqlash mumkin emas, shuning uchun uni baholash ramziy nuqtai nazardan o'lchanadi.

Uni merosini hujjatlashtiradigan va himoya qiladigan har bir jamoa saqlaydi, hozirgi va o'tmishda ham.

U bilim yoki ish uslubi, bayramlar, marosimlar, festivallar, gastronomiya, kiyim-kechak, raqs, teatr, musiqa kabi badiiy iboralar orqali shakllanadi.

Bosh Qomusimizda qadimi obidalar, noyob osori-atiqalar, qimmatli kitob va qo'lyozmalar, san'at namunalari bilan birga, madaniy boylik sifatida nomoddiy merosimiz muhofazasi ham kafolatlangan. Nomoddiy meros obyektlarini o'rganish, muhofazalash, yo'qolib borayotgan an'analarni qayta tiklash va targ'ib etishda Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Fanlar akademiyasi, Badiiy akademiyasi, Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari va boshqa

tashkilotlar, ijodiy birlashma va uyushmalar o'rtasida yaqin hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazida nomoddiy madaniy merosni hujjatlashtirish bo'limi tashkil etilib, uning faoliyati samarali olib borilayotgani davlat va jamoat tashkilotlari tomonidan ma'naviy boyligimizni asrab-avaylash bo'yicha amalga oshirilgan ishlarni umumlashtirish, ularning doimiy monitoringini yuritish imkonini bermoqda. Qadimiy marosimlar, bayramlar, tabiat va koinotga oid bilimlar yo'nalishi bo'yicha yuzlab ijrochilar repertuaridagi folklor asarlar to'plandi. Jumladan, guli arg'uvon sayli, sumalak sayli, nikoh to'yi udumlari bevosita marosim o'tkazilayotgan sharoitda tasvirga tushirildi. O'zbek xalq og'zaki ijodining o'lan, lapar, yor-yor, alla, kelin salom, ashula, baytg'azal, rivoyat, afsona, topishmoq, maqol, duo-olqish, aytishuv, askiya, qiziqchilik, tabiat hodisalari bilan bog'liq qarashlar, mifologik tasavvurlar, ob-havo o'zgarishlariga doir ta'birlar haqidagi qiziqarli ma'lumotlar o'rganildi.

**Xulosa qilib aytganda** - milliy qadriyatlarimizni keng targ'ib etishda navro'z bayrami, qovun, gul sayllari, dorbozlik, qo'g'irchoqsozlik tomoshalari, xalq o'yinlari namoyishlari, baxshilar, o'lan ijrochilarining aytishuvi, turli festivallar, ko'rik-tanlovlar, ko'rgazmalar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz va xalqaro miqyosda o'tkazilayotgan anjumanlar mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni doimiy tarzda tahlil etib borish, soha mutaxassislarining o'zaro fikr va tajriba almashishi, yangidan-yangi taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish, ularni amaliyotga joriy etish, istiqboldagi vazifalarni belgilash imkonini bermoqda.

### References:

1. Haydarov. Z. U " Nomoddiy madaniy meros " Namangan – 2014
2. Haydarov .A. " Madaniyat – ma'naviy komillik poydevori. " Teatr jurnali " 2020-yil.
3. Internet saytlari
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.kutubxona.uz](http://www.kutubxona.uz)